Barqaror rivojlanishga ta’sir etuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni miqdoriy va sifat jihatidan baholash, biznes va investorlar uchun asosli qarorlar qabul qilish va potensial risklarni kamaytirishga imkon beradi. Biroq, bu omillarni baholashda yagona metodologiyaning mavjud emasligi ularni kengroq tadqiq qilish zaruratini taqozo etadi. Shunga asosan ushbu tadqiqotda mamlakatga xos xatarlarni baholashning turli metodologiyalarini qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu tadqiqot risklarni baholash uslubiyatidagi muammolar va cheklovlarni ham tadqiq etishni ko‘zda tutadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatga xos risklarni baholash va uning metodologiyasi borasida koʻplab taqdiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda koʻpincha siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy risklarni baholash va ularning bozorlar uchun oqibatlari oʻrganiladi. Xususan, Erb, Harvey & Viskanta (1996) larning tadqiqotlarida riskini baholash uchun qoʻllaniladigan turli miqdoriy usullarni koʻrib chiqilgan boʻlib, bunda asosiy eʼtibor YAIM oʻsishi, inflatsiya darajasi va toʻlov balansi kabi iqtisodiy va moliyaviy oʻzgaruvchilarga qaratiladi. Mualliflarning xulosasiga koʻra, riskni baholashda iqtisodiy koʻrsatkichlardan foydalanilishiga qaramasdan, siyosiy risk koʻpincha iqtisodiy omillarga nisbatan muhimroq ahamiyatga ega. Yaʼni, mamlakatdagi riskni baholashda faqatgina iqtisodiy omillarga tayanib boʻlmaydi va ishonchli natijaga ega boʻlish uchun miqdor va sifat (iqtisodiy va siyosiy) oʻzgaruvchilarini birlashtirish lozim [1]. Solnik (1974) esa risklarning xalqaro portfel investitsiyalar harakatiga taʼsirini tadqiq etgan boʻlib, uning taʼkidlashicha, mamlakatlardagi siyosiy beqarorlik, valyuta kursidagi tebranishlar va hukumatning iqtisodiyotga faol aralashuvi tufayli investitsiyalarning xalqaro oqimiga salbiy taʼsir etadi. Buning uchun investorlar va ishbilarmonlar risklarni tahlil qilishda geosiyosiy ziddiyatlar va bozorlarning oʻzgaruvchanligini hisobga olishlari zarur [2]. PRS Group (2012) siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy risk omillarini birlashtirgan holda mamlakat riskini baholash uchun eng keng qoʻllaniladigan metodologiyalardan birini taklif etgan. Ushbu jamoaning “Xalqaro mamlakatga xos risklarni baholash metodologiyasi” nomli hisobotida mamlakatlar uchun keng qamrovli risk profilini shakllantirish va turli xil risk koʻrsatkichlari qanday oʻlchanishi va baholanishi tushuntiriladi. Ularning xulosasiga koʻra, rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy risk umumiy risklarning eng koʻrinishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, barqaror institutlar, odil huquqiy tiziml va oqilona pul-kredit siyosatiga ega boʻlgan mamlakatlar odatda pastroq risk reytinglariga ega boʻladi [3]. Alon I. va boshq. (2006) esa transmilliy korporatsiyalarning (TMK) qaror qabul qilish jarayonlarida siyosiy riskning roli koʻrib shiqishgan. Unda global va geosiyosiy ziddiyatlar va ekspropriatsiya kabi siyosiy voqealar biznes operatsiyalari va investitsiyalar rentabelligiga taʼsir koʻrsatishi tadqiq etilgan. Ularning xulosasiga koʻra, transmilliy korporatsiyalar qoʻshma korxonalar kabi risklarni teng taqsimlash mexanizmlari yoki siyosiy risklarni sugʻurtalash orqali ularni yumshatish mumkin [4]. Aizenman, J., Hutchison, M., & Jinjarak, Y. (2013) lar esa Yevropaning 5 ta rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari maʼlumotlar toʻplamidan foydalangan holda qarzning YaIMga nisbati, inflatsiya va fiskal taqchillik kabi iqtisodiy shartlarning suveren kredit riskiga qanday taʼsir qilishini oʻrganishgan. Tadqiqotning xulosasiga koʻra, zaif fiskal tizim boʻlgan mamlakatlar yuqori suveren kredit riskiga duch keladi va bu risklar global moliyaviy beqarorlik tufayli yanada kuchayadi. Bunday vaziyatda faqatgina kuchli makroiqtisodiy boshqaruv va shaffoflik kredit riskini yumshatishi mumkin [5]. Bundan tashqari, Bouchet, Clark & Groslambert (2003) lar ham mamlakat risklarini baholash uchun qoʻllaniladigan turli yondashuvlar va usullar, jumladan, makroiqtisodiy tahlil, siyosiy risklarni baholash va bozor sentimentini tahlil qilishga urgʻu berishgan. Shuningdek, kitobda risk masalalari turli mintaqalar kesimida keys-stadilar orqali tahlil qilingan. Mualliflarning taʼkidlashicha, mamlakatda risklarni baholashda umumeʼtirof etilgan yagona metodologiya mavjud emas. Buning oʻrniga, tez oʻzgaruvchan siyosiy va iqtisodiy muhitda risklarni aniq baholash uchun miqdor va sifat oʻzgaruvchilar muvofiqlashgan holda jamlangan maʼlumotlar toʻplami zarur [6]. Hoti, S. & McAleer, M. (2004) esa mamlakatga xos riskini baholash uchun siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy risk oʻzgaruvchilarni oʻz ichiga olgan miqdoriy model ishlab chiqishgan. Tadqiqotda “Xalqaro mamlakatga xos risklarni baholash metodologiyasi” dan foydalanilgan holda risklarni miqdoriy baholash uchun ekonometrik tahlillarni amalga oshirganlar. Tadqiqot, mamlakatga xos risklarni baholash koʻp oʻlchovli tushuncha boʻlib, asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy omillar koʻpincha asosiy determinant hisoblanadi. Miqdoriy yondashuv esa, riskni yanada aniq va obyektiv baholashni taʼminlaydi [7]. Kochergina, T. E., & Ryaboshapka, A. I. (2022) lar mamlakat siyosiy risklarini baholashning metodologik yondashuvlarini ishlab chiqishgan hamda mamlakat riski darajasini ball tizimida baholashgan. Mualliflar, tanlangan mamlakat risklari mezonlari asosida mamlakatlarning raqobat tahlilini oʻtkazish algoritmi taklif qilishgan [8].

Olib borilgan tadqiqotlardan koʻrish mumkinki, mamlakatlarga xos boʻlgan risk darajasini baholashda yagona metodologiyaning mavjud emasligi, mualliflarda turli xil uslubiyatlardan foydalanishni taqozo etgan. Biroq, bu kabi makro-risklarni baholash uchun Oʻzbekiston kabi rivojlanayatgan mamlakatlar uchun qanday metodologiya zarur? Ushbu tadqiqot davomida biz risklarni baholashning turli metodologiyalarini tahlil qilamiz va Oʻzbekiston uchun mos kelishi mumkin boʻlgan uslubiyatni taklif etamiz.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi gipotezaning nazariy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqqan holda tizimli yon-dashuv, sabab-oqibat, qiyosiy tahlil, taqqoslash kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Odatda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik shart-sharoitlar va ustuvorlik bir-biridan farqlanishi sababli makro-risklarni baholash borasidagi uslubiyatlar ham turlicha boʻlishini mumkin. Tahlilni dastlab Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) “Mamlakatlarga xos xatarlarni baholash modeli” (CRAM) metodologiyasi tahlilidan boshlaymiz (1-rasm).




1-rasm. IHT tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “CRAM” modeli metodologiyasining strukturaviy tuzilishi [12].

CRAM metodologiyasi to‘rt yo‘nalish bo‘yicha jami 22 ta kriteriyalarning jamlanmasidan tashkil topgan. Ushbu metod risk darajasini miqdor va sifat ko‘rsatkichlari asosida baholaydi va asosan mamlakatning moliyaviy xavfsizlik ko‘rsatkichlariga ustuvorlik beradi. Siyosiy shart-sharoitlar esa muvofiqlashtiruvchi sifat me’zonlari hisoblanadi. CRAM metodi bo‘yicha natijalarni aks ettiruvchi ko‘rsatkich - ball hisoblanadi va 0 dan 7 gacha bo‘lgan baholarda ifodalanadi. Ya’ni, 7 ball riskning eng yuqori darajasi (ba’zi manbaalarga ko‘ra Afg‘oniston, Venevuella, Zimbabve, Iroq, Suriya) va uning eng quyi darajasi esa 0 ball hisoblanadi (manbaalarga ko‘ra Evropaning shimoliy mamlakatlari, Yaponiya, Qo‘shma Shtatlar). Biroq, bu metodologiya ham kamchiliklardan holi emas. Birinchidan, ushbu mezon asosan qat’iyan oldingi statistik kuzatuvlarga bog‘liq bo‘lib, kutilmagan o‘zgarishlar hisobga olinmaydi va ko‘pincha baholangan natijalarning ishonchlilik darajasi zaiflashtiradi. Ikkinchidan, dinamik o‘zgarishlarga modlashuvchan emas.

Mamlakatga xos risklarni baholashning yana bir usuli, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining yondashuvi bo‘lib, u mamlakatlarni muayyan guruhlarga ajratish, ya’ni, rivojlangan, rivojlanayotgan va past daromadli mamlakatlar kesiminida risklarni tahlil qilishga mo‘ljallangan metodologiya hisoblanadi. Dastlab, rivojlanayotgan mamlakatlar riskini baholash uslubiyatini ko‘rib chiqamiz (2-1-jadval).

1-jadval. XFV tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda riskni baholash uchun tavsiya etilgan “Tasodifiy to‘xtash modeli”ning (Sudden Stop model) ko‘rsatkichlari.

| Tashqi sektor | Davlat sektori | Moliyaviy sektor | Real sektor | Ta’sirdorlik |
|---|---|---|---|---|
| Joriy operatsiyalar balansi<br>Real almashinuv kursining (RAK) nomutanosibligi<br>Tashqi qarzning eksportga nisbati<br>Xususiy sektor tashqi qarzining eksportga nisbati<br>Zahiralarning yetarliligi %, (XVFning ARA metodi yo‘yicha)<br>Zahiralarni yetarliligining o‘zgarishi %, (XVFning ARA metodi bo‘yicha)<br>Tashqi qarzni eksportga nisbatining o‘zgarishi | Yalpi davlat qarzi<br>Asosiy balans farqi<br>Qarzning o‘rtacha to‘lash muddati<br>O‘rtacha samarali soiz stavka<br>Foiz xarajatlari<br>Yalpi moliyaviy ehtiyoj<br>Qisqa muddatli yalpi davlat qarzi<br>Davlat tashqi qarzi<br>Qarzning chet el valyutasidagi ulushi<br>Davriy tuzatilgan birlamchi balans | Yalpi kreditlar-dagi xorijiy aktiv-larning ulushi, (%)<br>Kapital yetarliligi koeffitsiyenti<br>Aktivlarning qaytimi<br>Kreditlarning depozitga nisbatan<br>YalMga nisbatan uch yillik jamlanma kredit<br>Davr oxiridagi tafovut – Kapital<br>Davr oxiridagi tafovut - Kreditning depozitga nisbati<br>Davr oxiridagi tafovut - Xususiy sektorga berilgan kreditlar<br>Davr oxiridagi tafovut - Ko‘chmas mulk narxlari | Foizlar qoplash koeffitsienti<br>Real YalM o‘sishi<br>Nomoliyaviy korporatsiyalarning xorijiy valyutadagi qarzi<br>Uy xo‘jaliklarining jami qarzi<br>Jami nomoliyaviy sektor va uy xo‘jaliklari qarzlaridagi chet el valyutasi ulushi<br>Nomoliyaviy sektor va uy xo‘jaliklari qarzi qoldig‘ining umumiy hajmidagi xorijiy valyutaning ulushi<br>Qarz qimmatli qog‘ozlarining umumiy zaxirasida noinvestitsion qarzlarning ulushi | Mintaqaviy rivojlanayotgan bozor-lardagi obligatsiyalar indeksining tarqalishi<br>Eksport talabining o‘sish sur’atidagi o‘zgarishlar<br>Bankning tashqi majburiyatlari<br>Bankning tashqi majburiyatlari va hamkor davlatlar YalM o‘sishining o‘zaro bog‘liqligi<br>Rivojlanayotgan bozorlarda obligat-siyalar indeksi kengayishi<br>Bank majburiyat-larining tendensiyadan chetlashishi |

Manba: Ahuja, M. A., Wiseman, K., & Syed, M. M. H. (2017).

Model omillarini beshta asosiy guruhga kiruvchi, xususan, davlat, moliyaviy, real sektorlar koʻrsatkichlari va bir mamlakatning boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini hisobga oluvchi ta'sirdorlik kabi koʻrsatkichlardan iborat boʻlgan jami 39 ta omilni oʻz ichiga oladi. Ushbu omillar esa yagona indeks sifatida jamlanadi (2-rasm).

Model koʻrsatkichlari rivojlanayotgan mamlakatlardagi turli xil iqtisodiy shart-sharoitlarni ifodalaydi, bu esa mamlakatning kutilmagan va fors-major holatlarga boʻlgan zaifliklarini har tomonlama koʻrib chiqish imkonini beradi hamda bu koʻrsatkichlar mamlakatning umumiy xavf profilini baholash uchun boshqa tahliliy vositalar va ekspert xulosalari bilan birgalikda qoʻllanilishi koʻzda tutilgan.

Modelning afzal jihatlari shundaki, u riskni baholashda mamlakat uchun ham ichki, ham tashqi omillarning keng doirasini hisobga oladi, iqtisodiyotidagi potensial muammolar haqida oldindan xabar beradi va mamlakatlarning oʻziga xosligini inobatga oladi. Modelning asosiy sharti esa unda foydalaniladigan koʻrsatkichlar asosli va ishonchli boʻlishi talab etiladi.




2-rasm. “Tasodifiy toʻxtash modeli”ning (Sudden Stop model) agregatlashgan (jamlanma) indeksi [9].

Ushbu model ma'lumotlar toʻplamidan foydalanib, risk boʻyicha chegaraviy miqdor belgilash va risk darajasini ushbu begilangan chagaralaardan oshgan qismini jamlash (agregatlash) orqali turli inqirozlarga nisbatan mamlakatning zaiflik/bardoshlilik darajasini baholaydi. Agar yigʻma koʻrsatkichlar belgilangan chegaraviy qiymatlardan oshsa 1, aksincha, ushbu chegaralar doirasida qolsa 0 qiymat belgilanadi.

Kuzatuvlarga koʻra koʻpincha past daromadli mamlakatlarning riskka bardoshlilik darajasi pastroq boʻladi. Bunga sabab, asosan savdo shartlarining yomonlashuvi, xalqaro transfertlar va pul oʻtkazmalari oqimidagi qisqarish hamda tabiiy ofatlar boʻlishi mumkin. Ushbu shoklar zaif institutsional tizim, siyosiy va ijtimoiy beqarorlik va diversifikatsiyalanmagan iqtisodiy tuzilma tufayli yanada salbiy tus olishi mumkin (Ahuja, M. A. va boshq. 2017). Shuning uchun ham bu kabi mamlakatlar uchun risklarni baholashning oʻziga xos mezonlari talab etiladi. Quyida XVF mutaxassislarining past daromadli mamlakatlar uchun riskni baholashning muqobil kriteriyalarini tahlil qilamiz (2-jadval).

2-jadval. XFVning quyi daromadli mamlakatlar uchun riskni baholash koʻrsatkichari.

| Iqtisodiyot va institutlar | Tashqi omillar | Fiskal sharoitlar |
|---|---|---|
| • Real YaIMning oʻsishi<br>• Mamlakat siyosati va institutsional holat (CPIA)<br>• JINI indeksi<br>• Jon boshiga real YaIM<br>• Tabiiy ofatlardan zararlanishlar soni | • Zaxiralarning qoplanishi (Yalpi xalqaro zaxiralar /Import hajmi)<br>• Tovarlar va xizmatlar hajmining real oʻsishi<br>• Eksport bilan bogʻliq savdo hamkorliklaridagi oʻsishi (Laglangan-kechikishlar hisobga olingan)<br>• Eksport narxiga qiyoslangan eksportning oʻzishi (Laglangan-kechikishlar hisobga olingan) | • Balanslashgan budjet<br>• Davlat qarzining YaIMdagi ulushi<br>• Davlatning real daromadi<br>• Davlatning soliq daromadi |

Manba: Ahuja, M. A., Wiseman, K., & Syed, M. M. H. (2017).

Ushbu model ham “Tashodifiy to‘xtash” modelining negizida shakllangan bo‘lib, o‘sishning pasayishi indeksi (A growth decline vulnerability index (GDVI)) tayanch mezon sifatida olingan. Ushbu indeks esa katta va kutilmagan ekzogen shoklar kuzatilgan taqdirda o‘sishning keskin pasayishiga mamlakatning bardoshliligini aniqlash uchun tuzilgan.




3-rasm. O‘sishning pasayishi indeksiga asoslangan modelning agregatlashgan (jamlanma) indeksi [9].

Dabla-Norris, E., & Gündüz, Y. B. (2014) larning ta’kidlashicha ushbu modellar orqali riskni baholash uslubiyati quyidagi ikki bosqichlarga asoslanadi:

Birinchi bosqichda risk ko‘lami aniqlanadi. Ya’ni, bordiyu mamlakatda tashqi talab, shavdo shartlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, xorijiy transfertlar, pul o‘tkazmalari va tabiiy ofatlar kabi o‘zgaruvchilardan birining yillik foiz o‘zgarishi mamlakat bo‘yicha quyi 10 foizlik chegarasidan pastga tushsa shok “yirik” deb hisobladi.

Ikkinchi boqichda shok yuz berganda o‘sishning keskin pasayishi quyidagi ikki shartga ko‘ra yirik hajmda real ishlab chiqarishning pasayishi sifatida aniqlanadi: shokdan keyingi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real ishlab chiqarishning 2 yillik o‘rtacha darajasi, shokdan oldingi 3 yillik o‘rtacha darajasiga nisbatan kamayadi va shok yuz bergan yilda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarishning o‘sishi salbiy tus oladi [10].

Biroq, ushbu model kamchiliklarda holi emas, xususan, model ko‘rsatkichlarining aksariyat statistikasi hamma mamlakatlarda ham to‘liq yuritilmaydi, ko‘rsatkichlar orasida o‘zaro korrelatsiyaning yuqoriligi, iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichiga kuchli bog‘liqlik va riskni baholashning sifat omillarini to‘liq qamrab olmasligi kabi kamchiliklar uchraydi.

Odatda rivojlangan mamlakatlarning xatarlarga nisbatan bardoshlilik darajasi yuqori bo‘lsada unga qarshi chora-tadbirlar qo‘llash o‘ziga xos yondashuv talab etiladi. Ko‘p hollarda riskka nisbatan kompleks yondashuvdan ko‘ra spesifik yondashuv, ya’ni, ma’lum turdagi aniq risklarni tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuni hisobga olib XVF ekspertlari rivojlangan mamlakatlar uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni taklif etidilar (3-jadval).

3-jadval. XFVning rivojlangan mamlakatlar uchun riskni baholash ko‘rsatkichlari.

| Tashqi sektor | Makroiqt. | Fiskal | Moliyaviy | Aktivlar narxi | Ta’sirdorlik |
|---|---|---|---|---|---|
| Tashqi disbalans<br>Valyuta kursining nomutanosibligi<br>Tashqi savdo balansidagi xararlar | Inflatsiya/ Deflatsiya xavfi<br>O‘sish riski | Qarzdorlik muddatini uzaytirish xavflari<br>Suveren defolt xavfi to‘g‘risidagi kutilmalar<br>Uzoq muddatli budjet moslashuvi ehtiyojlari<br>O‘rta muddatli davlat qarzi dinamikasiga ta’sir etuvchi xavflar<br>Davlat qarzining salbiy shoklarga nisbatan sezgirligi<br>Hamkor davlatlardagi moliyaviy qiyinchilik-larining ta’sirdorlik xavfi | Banklararo almashinuv<br>Asosiy nazarda tutilgan kredit defolt svopi (CDS)<br>Kredit sikli ko‘rsatkichi<br>Balans hisoboti-ning qat’iyligi | Uy-joy ko‘chmas mulk bozori<br>Aksiya bozori<br>Korporativ sektorning zaif tomonlari | Moliyaviy sektor-ning transchegaraviy ta’siri<br>Rivojlanayotgan bozorlarga nisbatan ta’sirchanlik<br>Savdo aloqalari orqali ta’sirdorlik xavfi |

Manba: Ahuja, M. A., Wiseman, K., & Syed, M. M. H. (2017).

Inkluziv institutlar mamlakat siyosiy barqarorligining asosiy sharti hisoblanadi. Siyosiy barqarorlik esa iqtisodiy barqarorlikning  kafolati hisoblanadi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda siyosiy barqarorlik shartlari bajarilganligi uchun ular asosan iqtisodiy omillarga e'tibor qaratadi. Ushbu mamlakatlar uchun riskni baholash ko'rsatkichlari sifatida tashqi, makroiqtisodiy, moliyaviy, aktivlar bahosi va bir mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatning boshqa mamlakatlarga ta'sirini aks ettiruvchi ta'sirdorlik kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu mezonning asosiy kamchiligi tasodifiy shoklarni hisobga olmasligi va prognoz qila olmasligidir.

Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflashning yana bir metodologiyasi "STANDARD & POOR'S" xalqaro baholash tashkilotining yondashuvi bo'lib, u to'rt yo'nalishda riskni tahlil qiladi. Quyida ushbu metodologiyaning tarkibiy tuzilishi va xususiyatlarini tahlil qilamiz (4-rasm).




4-rasm. "STANDARD & POOR'S" xalqaro baholash tashkilotining mamlakatga xos xatarlarni baholash metodologiyasi [11].

Ushbu mezon iqtisodiy, institutsional, moliyaviy va qonun ustivorligi kabi 4 ta asosiy sub-faktorlardan iborat (4-jadval).

4-jadval. "STANDARD & POOR'S" xalqaro baholash tashkilotining mamlakat riskini baholashdagi sub-faktorlarning tavsifi.

| Sub-faktorlar | Sub-faktorlarning tavsifi |
|---|---|
| Iqtisodiy risk | Ushbu sub-omili suveren iqtisodiy baholash mezonlariga asoslanadi, bunda monetar tizimdagi yuqori risk, tashqi sektordagi risk yoki iqtisodiy nomutanosibliklar bo'yicha ba'zi tuzatishlar kiritilgan bo'lib, u daromad hajmi, o'sish istiqbollari, iqtisodiyotning diversifikatsiyalanganligi va undagi tebranishlarni o'z ichiga oladi. |
| Institutsional risk | Ushbu sub-faktor suveren institutsional baholash mezonlariga tayanadi va suveren siyosat va siyosiy institutlarning samaradorligi, barqarorligi va ularni prognoz qilinishi, institutlar, axborot va jarayonlarning shaffofligi va hisobdorligi, shuningdek, statistik ma'lumotlar qamrovining kengligi va ishonchliligi hamda qarzni to'lash madaniyati va tashqi xavfsizlik risklari kabi potentsial omillarini o'z ichiga oladi. |

| | |
|---|---|
| Moliyaviy tizim riski | Ushbu sub-omilni baholashda asosan BSMRB (Bank sohasi mamlakat risklarini baholash) koʻrsatkichidan foydalaniladi. BSMRB koʻrsatkichlariga ichki kapital va qarz bozori kiradi hamda ichki kaital bozori konyukturasidagi vaziyat tashqi kapital bozoriga ham taaluqli boʻlganligi uchun tashqi kapital bozori koʻrsatkichlarini ham hisobga oladi. |
| Toʻlov madaniyati/ Q.R (Qonun Riski) | Ushbu sub-faktor ekspropriatsiya (musodara qilish/tortib olish) xavfi mavjud boʻlganda qoʻllantiladi. Ya’ni, agar hukumat mulkdorlarga koppensatsiya toʻlashdan bosh tortsa ekspropriatsiya xavfi yuqori deb hisoblanadi va bu riskni baholashda qoʻllaniladi. Ushbu kategoriya shartnomalarning ishonchliligi va shartnomaviy huquqlarni amalga oshirilishiga ta’sir qiladi. Bu esa ushbu kategoriyani suveren boʻlmagan subyektlarga ta’luqli ekanligini anglatadi. |

Manba: S&P Global Ratings. (2013, November 19) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mamlakat riskini baholashning ushbu metodologiyasi 1 dan 6 gacha boʻlgan shkalada risklarni baholaydi. Ya’ni:

“1” juda past darajadagi risk;
“2” past risk;
“3” oʻrtacha risk;
“4” moʻtadil darajada yuqori risk;
“5” yuqori risk;
“6” juda yuqori darajadagi risk.

Ushbu metodologiyaning baholash kriteriyalaridagi afzallik uni sodda va tushunarli ekanligidadir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakat riskini baholash borasidagi metodologiyalarni tahlil qilishda ma’lum boʻldiki, ularning turfa xilligi, baholovchi koʻrsatkichlari usul va me’zonlari oʻzaro farqlanadi. IHTTning CRAM metodologiyasi mamlakat riski darajasini miqdor va sifat koʻrsatkichlari asosida baholaydi va moliyaviy xavfsizlik modelning bosh mezoni hisoblanadi. XVF esa mamlakatlarni uch toifaga ajratgan holda riskni baholaydi. Ya’ni, risk tahlili - mamlakatlarning rivojlanganlik va daromad darajasiga koʻra amalga oshiriladi. Buning afzalligi shundaki, ushbu tahlilda mamlakatlarning spesifik xususiyatlari inobatga olinadi. “STANDARD & POOR’S” xalqaro baholash tashkilotining yondashuvi ham XVF ning yondashuvi kabi keng qamrovli boʻlib, riskning xususiyatlariga e’tibor qaratadi. Uning afzalligi shundaki, mamlakatdagi shartnomaviy va institutsional muammolar ham riskni baholash sub-faktorlari tarkibiga kiritiladi. Yuqoridagi uslubiyatlarning barchasiga xos boʻlgan umumiy kamchilik shundan iboratki, ularning hammasi retrospektiv statistik kuzatuvlarga tayanadi va kutilmagan risklarni hisobga olmaydi.

Oʻzbekiston markaziy osiyo mintaqasidagi geosiyosiy faol va strategik ahamiyatga ega mamlakat ekanligi va shiddat bilan rivojlanayotganligi risklarni baholash borasida oʻziga xos uslubiyat shakllantirish zaruratini taqozo etadi. Bularni hisobga olgan holda Oʻzbekiston uchun riskni baholash yoʻnalishlari sifatida, tashqi savdo balansidagi yil sayin kengayib borayotgan defitsit tufayli “Tashqi sektor”, soʻngi yillardagi yiriklashib borayotgan budjet defitsiti va davlat qarzi tufayli “Moliyaviy sektor”, qisqarib borayotgan rasmiy zaxiralar, milliy valyuta devalvatsiyasi, yuqori inflatsiya, bank tizimidagi kengayib borayotgan debitorlik majburiyatlari tufayli “Monetar sektor”, mulkchilik va shartnomaviy munosabatlaridagi nomutanosibliklar tufayli “Institutsional sharoitlar”, ichki bozor milliy tovar va xizmatlar bilan toʻyinmaganligini, milliy ishlab chiqarishning zaifligi va ishsizlik darajasining yuqoriligi tufayli “Real sektor” kabilar Oʻzbekistonda risklarni tahlil qilishning potensial ob’ekti boʻlishi mumkin. Ushbu taklif qilinayotgan sektorlar doirasida Oʻzbekiston uchun riskni baholashga yondashuv maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar


1. Erb, C. B., Harvey, C. R., & Viskanta, T. E. (1996). Political risk, economic risk, and financial risk. Financial Analysts Journal, 52(6), 29-46.
2. Solnik, B. H. (1974). The International pricing of risk: An empirical investigation of the world capital market structure. The Journal of Finance, 29(2), 365-378.
3. PRS Group. (2012). International Country Risk Guide (ICRG) Methodology. Retrieved in.
4. Alon, I., Gurumoorthy, R., Mitchell, M. C., & Steen, T. (2006). Managing micropolitical risk: A cross-sector examination. Thunderbird International Business Review, 48(5), 623-642.
5. Aizenman, J., Hutchison, M., & Jinjarak, Y. (2013). What is the risk of European sovereign debt defaults? Fiscal space, CDS spreads and market pricing of risk. Journal of International Money and Finance, 34, 37-59.
6. Bouchet, M. H., Clark, E., & Groslambert, B. (2003). Country risk assessment: A guide to global investment strategy.
7. Hoti S, McAleer M. An empirical assessment of country risk ratings and associated models. Journal of Economic Surveys. 2004 Sep;18(4):539-88.

8. Kochergina, T. E., & Ryaboshapka, A. I. (2022). Assessment of country political risks as an international business management tool. In Innovative Trends in International Business and Sustainable Management (pp. 13-22). Singapore: Springer Nature Singapore.
9. Ahuja, M. A., Wiseman, K., & Syed, M. M. H. (2017). Assessing country risk: Selected approaches. International Monetary Fund.
10. Dabla-Norris, E., & Gündüz, Y. B. (2014). Exogenous shocks and growth crises in low-income countries: A vulnerability index. World Development, 59, 360-378.
11. S&P Global Ratings. (2013, November 19). Country Risk Assessment Methodology and Assumptions. S&P Global Ratings. https://www.spglobal.com/ratingsdirect.
12. https://www.sace.it/docs/default-source/training/2014-03-26/country-risk-analysis.pdf?sfvrsn=2

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar maʼsul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi maʼlumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.